



UO'T: 937.635.632

MOYCHECHAK (*MATRICARIA CHAMOMILLA* L.) YETISHTIRISHDA SHIRALARGA QARSHI KURASHDA OLTINKO'ZNING SAMARADORLIGI

Nosirova Zarifaxon G'ulamjonovna 

dotsent

e-mail: agrar.zara@yandex.ru

Muminov Sunnatilla Farxod o'g'li 

magistrant

Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. Maqolada dorivor o'simliklardan biri – moychechak yetishtirishda asosiy zararkunandalardan biri hisoblanuvchi shiralarga qarshi kurash tadbirlarini albatta olib borish zarurligi va bunda, xususan, oltinko'z samarali vosita bo'lib xizmat qilishi, entomofag va zararkunanda o'rtasidagi eng maqbul munosabat esa 1:10 qiymatni tashkil qilishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: dorivor o'simliklar, zararkunanda, shiralalar, oltinko'z, biologik samaradorlik

Аннотация. Показано, что при выращивании одного из лекарственных растений – ромашки нужно обязательно вести борьбу с одним из важнейших вредителей – тлями. На примере использования биологического метода с личинками златоглазки установлено, что наилучшее соотношение энтомофаг:вредитель в борьбе с тлями равно 1:10.

Ключевые слова: лекарственные растения, вредитель, тли, златоглазка, биологическая эффективность

Abstract. It is shown that in cultivation one of drug plants, that is chamomile is important to fight against one of important pests, that are, aphids. As the sample of fight against ones using the lacewing larvae has been proved that the most suitable relation between entomophagy and pest is 1:10.

Keywords: drug plants, pest, aphids, lacewing, biologic efficiency



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

KIRISH

Ma'lumki, dorivor moychechak (*Matricaria chamomilla* L.) – farmatsevtika va xalq tabobatida keng qo'llaniladigan dorivor o'simlik hisoblanadi. Uning hosili va sifatini oshirish uchun zararkunandalarga qarshi samarali kurash choralarini ishlab chiqish muhimdir [1].

Moychechak yetishtirishda uning hosildorligiga sezilarli darajada salbiy ta'sir qiluvchi zararkunandalardan shiralar, tripslar, o'rgimchakkana, oqqanot, gamma tunlani, simqurtlar va sikadkalar muhim o'rin tutadi [2].

Mazkur ishda mazkur dorivor o'simlikni yetishtirishda shiralar (*Aphididae*)ga qarshi biologik usulda kurashish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalarining tahlili keltirilgan.

MATERIALLAR VA USUBLAR

Tadqiqotlar 2024-2025 yillar mavsumida Andijon viloyatining Paxtaobod tumanining fermer xo'jaliklari dalalarida olib borildi. Bunda moychechak ekini kuzgi dalalarda bug'doy ekini hosili yig'ishtirib olinganidan so'ng bo'shagan maydonlarga, ya'ni 2024-yilning oktyabr-noyabr oylarida ekildi. Ekish reglamentlari [3] maqolada ko'rsatilgan uslubda olib borildi.

Tajribalar 4 ta variantda bir-biridan 800-1000 m masofalarda joylashgan hududlarda tashkil etildi. Har bir hududda 70×10 m sxemada, 5 tadan qaytariqlarda moychechak urug'lari sepib chiqildi.

Bunda zararkunandaga qarshi kurash tadbirlari 2025-yilning aprel-may oylarida, moychechak o'simligida dastlabki shiralar paydo bo'la boshlagan paytda o'tkazildi. Shiralarga qarshi kurash vositasi sifatida oltinko'z (*Chrysopa carnea*) entomofagi lichinkasi qo'llanildi. Tadqiqotlarda 1-variantda entomofag va zararkunanda o'rtasidagi munosabat 1:20 nisbatda, 2-variantda – 1:10 nisbatda, 3-variantda esa – 1:5 nisbatda qo'llanildi. 4-variantda hech qanday kurash tadbiri olib borilmadi, ya'ni u nazoratda qoldi. Tajriba o'tkazish natijasida erishilgan biologik samaradorlik (*BS*) quyidagi munosabat orqali hisoblandi:

$$BS = \frac{A - B}{A} \cdot 100\% .$$

Bu yerda A va B – mos holda entomofagni qo'llashdan avvalgi va qo'llashdan keying shiralar soni. Shiralar miqdori entomofagni qo'yib yuborish paytida (A) va moychechak qiyg'os qullagan paytdagi (B) qayd etildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Moychechak yetishtirishda shiralarga qarshi kurashda oltinko'zning samaradorligini aniqlash bo'yicha olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

1-jadval

Moychechak yetishtirishda shiralarga qarshi kurashda oltinko'zning samaradorligi
(Andijon viloyati, Paxtaobod tumani, 2024-2025-yillar)

variant	Oltinko'z lichinkasi va shiralarning o'rtasidagi munosabat	entomofagni qo'yib yuborish paytidagi o'rtacha shiralarning soni, A, ta/metr	moychechak qiyg'os qullagan paytdagi o'rtacha shiralarning soni, B, ta/metr	Erishilgan biologik samaradorlik, BS, %
1	1:20	68,1	44,8	34
2	1:10	72,3	44,5	38
3	1:5	55,7	41,1	26
4	nazorat	65,1	78,5	-

Jadvaldan ko'rinadiki, entomofag qo'llanilgan barcha (1-3) variantlarda zararkunanda miqdorining kamayishi kuzatilgan. Aynan mana shu hol nazorat (4) variantida kutilganidek, aksincha, ya'ni ko'payishi namoyon bo'lgan. Bu esa shiralarga qarshi oltinko'z lichinkalarini qo'llash orqali kurash olib borish ma'lum bir ijobiy natijaga olib kelganligini ko'rsatadi. Eng katta biologik samaradorlikka entomofag:zararkunanda o'rtasidagi munosabat 1:10 bo'lgan variantda, eng kichik samaradorlik esa 1:5 bo'lgan variantda kuzatilgan.

XULOSA

Bundan kelib chiqadiki, dorivor o'simliklardan biri – moychechak yetishtirishda asosiy zararkunandalardan biri hisoblanuvchi shiralarga qarshi kurash tadbirlarini albatta olib borish zarur va bunda, xususan, oltinko'z samarali vosita bo'lib xizmat qiladi, entomofag va zararkunanda o'rtasidagi eng maqbul munosabat esa 1:10 qiymatni tashkil qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Чапалда Т.Л., Чулкова В.В. Основные меры борьбы с вредителями и болезнями лекарственных растений // Вестник биотехнологии. 2020. № 1(22). С. 17-22.
2. Носирова З.Г., Муминов С.Ф. Борьба с вредителями растения ромашка (*Matricaria chamomilla* L.) // Agrokimyo himoya va o'simliklar karantini. 2025. № 2. С. 51-52.
3. Baratova M.R., O'g'iloy Q., Adolat D. Moychechak o'simligini yetishtirish agrotexnikasi // "Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar" ilmiy onlayn konferensiya materiallari to'plami, Andijon sh, 2023-yil, B. 417-420.